

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MURAKKAB MASALALARNI YECHISH AHAMIYATI

*Samarqand viloyati Samarqand shahar  
55- maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Akaberova Dilafruz Ibodullayevna*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinflarda matematikani murakkab masalarini yechishni asosiy usullari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *analiz; sintetik metod, analitik metod.*

O'qish savodxonligi 1997-yilda PISA xalqaro baholash tadqiqoti tashkil topgan. Ilk bor 2000 – yilda qo'llanila boshlagan. 4-bosqichda PISA-2009 xalqaro baholash tadqiqotida yana ustuvor yo'nalish hisoblanib, qisman qaytadan yangi baholash vositalari va konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etdi. 2018-yil PISA tadqiqotining 7-bosqichida o'qish savodxonligini baholash uchinchi marotaba diqqat markazida bo'ldi. Yangi bosqichda vositalarni qo'llashda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Konsepsiyani qayta ko'rib chiqish zamonaviy o'qish savodxonligi nazariyasiga asoslanadi, hamda zamonaviy hayotda o'qish sharoitini hisobga olib, o'quvchilar keng mazmundagi ma'lumotlarni qabul qilishadi va ulardan keng foydalanishadi. Biz shiddat bilan o'zgarayotgan, son jihatidan va turli xil yozma materiallar borgan sari ko'payib borayotgani hamda ko'plab insonlar ushbu materiallarni mutlaqo yangi va murakkab usullar bilan qo'llayotgan dunyoda yashayapmiz. Hozirda jamoatchilik tomonidan o'qish savodxonligining rivojlanayotganligi jamiyat va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar bilan hamohang ekanligi anglab tan olinmoqda. O'qish malakasi, individual rivojlanish, ta'lim faoliyatidagi yutuqlar, jamoatchilikdagi faollik uchun zarur. Chunki ushbu faoliyatlar 20 yil avval zamonaviy qarashlardan farq qilar edi. Albatta, bu 20 yildan so'ng yanada ko'proq o'zgarishi mumkin.

**PIRLS** - (*inglizcha –Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot* ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assotsiatsiyasi (**IEA**) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi to'rtinchi sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha yetakchi xalqaro tadqiqotlar orasida. Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor

qo'yilgan. Shunday ekan bizning oldimizdagi bosh maqsadimiz o'quvchilarimizning xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishimiz kerakligini har bir pedagog tushunib anglab yetishi lozimligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va ob'yektiv tarzda baholay olishga oid mas'uliyat ham shallangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materialni modellashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu jarayonda boalning o'zi mustaqil tarzda har qanday sxema model bo'la olmasligini tushunib yetishi kerak, bir so'z bilan aytganda unda faraz qila olish ko'nikmasi hosil bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshida o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish o'rganish, yani talimiy faoliyat, boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga-bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim. Jumladan, nutq va savodxonlikni rivojlantirishga, jismoniy taraqqiyotni taminlashga va boshqalar. Biz bilamizki, boshlang'ich sinflarga ingliz tilida yovvoyi hayvonlarning o'rgatishda "ortiqchasini top" texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalalar yechish boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda sodda va murakkab masalalar o'quvchilar bilimlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Ko'pgina masalalar bir necha usul bilan yechiladi. Bunday masalalarni yechishda tartibga rioya qilish bir usul bilan masala yechishni yaxshi o'zlashtirib olgandan keyingina yangi usulga o'tishi lozim. Bir necha usuldan eng o'ng'ayini, maqsadga muvofiq'ini tanlab olish kerak.

Masala yechish ishi masala yechish metodini yaxshi tushunishga yordam beradi, o'quvchilarning tashabbuskorligini, masala yechish usullariga nisbatan topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari sodda masalalarni o'zlashtirib olganlaridan keyin, ya'ni ular shart va natijani ajratib olganlaridan keyin ma'lum va noma'lumlarni qiynalmay ajratadigan bo'ladilar, masala yechishning dastlabki ko'nikmalarini oladilar, shundan keyin darsga tarkibli masalalar kiritila boshlaydi. Murakkab masalalarni yechishga tayyorlash sodda masalalarni yechishdanoq boshlanadi. Eng oldin berilgan masala shartiga savol qo'yish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqni aytish kerak. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, qanday savolga javob berish mumkinligini to'g'ri aniqlash malakasi tarkibli masala ustida bundan keyin ishlashda muhim rol o'ynaydi. Bu malaka hamma o'quvchida bir xil va tez shakllanmasligini hisobga olib, bu yo'nalishdagi ishni o'quvchilarning kuchlari yetadigan materialdan foydalanib, ya'ni sodda masalalardan foydalanib ilgariroq o'tkazish kerak.

O'quvchilarni murakkab masalalarni yechishga o'rgatishda o'quvchi aqliy faoliyat bilan fikr yuritishi lozim. Murakkab masalalarni yechishga kirishishdan oldin ularni turlari (xillari) bo'yicha bo'lib, so'ngra yechimini izlash metodlarini tanlash va

tadbiq etishga kirishilsa, ish ma'lum darajada osonlashadi. Murakkab masalani sodda masalalarga ajratish va sodda masalani yechish natijasida izlanayotganlar bilan berilganlar o'rtasidagi bog'lanish xarakteri aniqlanadi. Buning asosida bu masalani yechish uchun arifmetik amal tanlanadi va natija hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. "Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida didaktik o'yinlar" Jizzax, 2007 yil
2. Bikbayeva N.U. Yangabayeva E. Matematika. Darslik 3-sinf Toshkent, "O'qituvchi" 2008 yil